



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Zebiniso Shodiyeva¹

¹Samarqand xalq ta'lifi boshqarmasi boshlig'i

GLOBALLASHUV JARAYONIDA UMUMIY O'RTA TA'LIMDAGI O'ZGARISHLARGLOBALLASHUV JARAYONIDA UMUMIY O'RTA TA'LIMDAGI O'ZGARISHLAR

Annotatsiya. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi QonunIII, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lifi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-sun Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sun Farmoni, "Ta'lif-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sun Qarori, 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'lifi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzliksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-sunli Qarorida tizimda eng zamonaviy, ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor berildi.

Kalit so'zlar: informatika, uzviyligi, axborot, axborot texnologiya.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi QonunIII, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lifi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-sun Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning

yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni, “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori, 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-tonli Qarorida tizimda eng zamonaviy, ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish masalalariga alohida e’tibor berildi [1]. Mazkur huquqiy-me’yoriy hujjatlarda O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, mavjud muammolarni hal etish borasida bir qator o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

1. Majburiy ta’lim tizimi (9+3) uchun 18 ta umumta’lim fanidan **ta’lim mazmunining uzviyligi to‘liq ta’minlangan holda** umumiyl o‘rtal hamda o‘rtal maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi. Amaldagi davlat ta’lim standartlari bundan 17 yil avval umumiyl o‘rtal ta’lim tizimi uchun alohida, o‘rtal maxsus ta’lim tizimi uchun alohida ishlab chiqilgan edi. Takomillashtirilgan davlat ta’lim standartlari **2021–2030 yillar oraliq‘ida bosqichma-bosqich** amaliyotga joriy etiladi. Ular ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi yondashuvning joriy etilishiga va u orqali o‘quvchilarda olgan bilimlarini amaliyotda to‘g‘ri qo’llay olishga, mustaqil ijodiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Zamon talablaridan kelib chiqib o‘quvchilarda informatika, axborot texnologiyalari fanining dastlabki tushunchalarini shakllantirish maqsadida I-IV sinflarda **matematika fanini o‘qitish mazmuniga dasturlashning dastlabki tushunchalari singdirildi**.

3. «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» fani **«Informatika va axborot texnologiyalari»** deb o‘zgartirildi. «Mehnat ta’limi» fani o‘quv rejada **«Texnologiya»** fani deb o‘zgartirildi hamda bugungi kun talablaridan kelib chiqib ko‘p tarmoqli yo‘nalishlarga asoslangan holda qayta ishlandi.

4. O‘quvchilarda ilk yoshdanoq shaxmat o‘yinlariga qiziqishini va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida jismoniy tarbiya fanidan DTSga o‘quvchilarda **shaxmat o‘yinini o‘rganish** talablari singdirildi.

5. Maktab yoshidagi bolalarni umumiyl o‘rtalimga qamrab olish tuman (shahar) hokimliklarining qarori bilan **maktablarga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) doirasida** umumta’lim muassasasi pedagog-xodimlari tomonidan bolalarni birma-bir (uyma-uy) ro‘yxatga olish orqali amalga oshiriladi. Bu maktablarda tahsil oluvchilar sonida nomutanosibliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Endilikda belgilangan me’yorlar bo‘yicha tegishli maydonga ega bo‘lgan umumta’lim muassasasi **sinflarining to‘liqligi 35 nafardan ortib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi**.

6. Sinf o‘quvchilarini bo‘lib o‘qitish bo‘yicha ham me’yorlar belgilandi. Jumladan, malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan hollarda o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan I-IX sinflarda chet tili, ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalarida chuqurlashtirib o‘qitiladigan fanlar, V-IX sinflarda informatika va mehnat ta’limi, VIII-IX sinflarda jismoniy tarbiya fani, ta’lim boshqa tilda olib boriladigan muassasalarning II-IX sinflarida o‘zbek tili hamda ta’lim tili rus tili bo‘lmagan muassasalarning II-IX sinflarida rus tili fani darslarini ikki guruhga bo‘lib o‘tishga ruxsat etiladi.

7. Namunaviy loyihalar bo'yicha qurilmagan, moslashtirilgan binolarda joylashgan, o'quvchilar soni yetarli bo'lmagan umumta'lim muassasalarida, olis (tog'li va cho'l hududi) aholi punktlarida joylashgan, ta'lim o'zbek tilida olib borilmaydigan maktablarda **o'quvchilar soni sinflarni to'ldirishning o'ziga xos shart-sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.**

8. Olis (tog'li va cho'l hududi) aholi punktlarida yashovchi maktab yoshidagi bolalarning sifatli umumiyligi o'rta ta'lim olishini ta'minlash maqsadida tegishli tuman (shahar) hokimliklarining qarori asosida **maktablarning filiallari tashkil etiladi**. Bunday filiallarda o'quvchilar soni 100 nafargacha bo'ladi. Boshqa umumta'lim muassasalariga yaqinligi hamda moddiy-texnik bazasining holatidan kelib chiqib o'quvchilar soni 180 nafargacha bo'lgan maktablar ham filialarga aylantirilishi mumkin.

9. Alovida sharoitlarda yoxud uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar umumiyligi o'rta ta'limni ixtisoslashtirilgan maktab, sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat, inklyuziv (uyg'unlashgan) sharoitda yashash joylaridagi umumiyligi o'rta ta'lim maktablarida, uyda yakka tartibda, davolash-profilaktika muassasalarida stasionar sharoitda olishlari mumkin.

Muxtasar aytganda, davlatimiz rahbarining ta'lim va tarbiya sohasidagi tub islohotlarni yuksak bosqichga ko'tarish, mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga qosir bo'lgan yangi avlod kadrlarni voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish nafaqat bizning vazifamiz, balki muqaddas burchimizdir.

Adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь // "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 30 декабрь. - №276 (7778)-сон.
2. "Халқ таълими соҳасидаги илмий тадқиқот фаолиятини қўллаб-қувватлаш ҳамда узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида" Ўзб.Республикаси Президентининг қарори // Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.01.20201 й., 07/21/4963/0064-сон.
3. «Ta'lim to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni. - Т.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020 yil 24 sentyabr. 03/20/637/1313-son.